

Xix Asr Oxiri - Xx Asr Choragida Zarafshon Vohasida Yer-Suv Muammolari Rossiya-Buxoro Munosabatlari Bosh Mavzusi Sifatida

Kamol Rahmonov¹, Yulduz Cho'lliyeva²

Annotatsiya: Mazkur maqolada an'anaviy yer-suv munosabatlari Rossiya imperiyasi mustamlakasi davrida Zarafshon vohasi hududlari misolida qiyosiy tahlil qilinadi.

Ko'p asrlik o'zbek davlatchiligi tarixida Zarafshon vohasi ham muhim o'rinnegallab, ushbu hududida o'ziga xos iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar yuz berib turgan. Ayniqsa, XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr birinchi choragida an'anaviy yer-suv munosabatlarida keskin o'zgarishlar ko'zga tashlanadi.

Kalit so'zlar: Davlat yerlari, vaqf, sug'orish inshoatlari, kanal, chig'ir, pud, Amerika paxta navi, yer-suv munosabatlari, qorako'l teri, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi, ziroat nozirligi, Zarafshon daryosi.

Kirish

O'rganilayotgan mintaqqa 1868 yildan so'ng markazi Samarqand shahri hisoblangan, Turkiston general-gubernatorligiga kiritilgan Zarafshon okrugi va yarim mustamlaka Buxoro amirligiga bo'linib ketgan. Zarafshon okrugi tarkibiga Samarqand, Kattaqo'rg'on, Jizzax, Xo'jand uyezdlari kirgan. Ushbu viloyat o'lkadagi viloyatlarning hududi jihatidan eng kichigi bo'lsada (maydoni 2000 kv.chaqirim), shunda ham u Saratov gubernasidan katta edi.

Turkiston general-gubernatorligi ma'muriyati agrar hudud hisoblangan Zarafshon okrugida yer-suvdan foydalanishi to'liq o'z nazoratiga olish va daromadlar keltiradigan soliqlarning o'z vaqtida to'planishidan manfaatdor edi. Shuning uchun yerga egalik qilish va undan foydalanish tartiblariga katta e'tibor qaratilgan. Shuni alohida qayd etish joizki, 1886 yilga kelib qabul qilingan "Nizom"ning "Turkiston o'lkasining yer tuzilishi"³ degan bo'limida o'lkada tarixan shakllanib kelgan an'anaviy yer-suv munosabatlarini o'zgartirib yubordi. Unga ko'ra, yerlar, o'rmonlar, yerosti qazilma boyliklari davlat mulki deb e'lon qilindi. Nizom bo'yicha o'lkada yirik yer egaligi ham tugatildi[1, B.58].

Tahlil etilayotgan tarixiy -geografik mintaqaning g'arbiy qismi esa Buxoro amirligi hududi hisoblanadi. Afsuski, XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo hududidagi eng yirik davlatlardan biri - Buxoro amirligi ham Rossiya imperiyasining yarim mustamlakasiga aylangan edi, lekin tashqi aloqalarda qaram, ichki masalalarda esa bir qadar mustaqil edi. Biroq amirlikdagi boshqaruv 1885 yildan Rossiya imperiyasining Buxorodagi siyosiy agentligi tomonidan qat'iy nazorat qilinardi. Mamlakat iqtisodiy jihatdan qoloq bo'lib, aholining asosiy mashg'uloti sun'iy sug'orish bilan uzziy bog'langan dehqonchilikdan iborat edi. 1920 yil arafasida amirlikda ekin ekiladigan yerlar maydoni 2 mln. 250 ming desyatina bo'lib (1 desyatina-1,09), 2,5 millionli aholining 90 foizi dehqonlardan iborat bo'lgan[2, B.7].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Uzoq asrlardan buyon amirlikda yerga egalik qilishning "amlok" (davlat yerlari), "mulki xos" yoki "mulki xolis" (xususiy yerlar) hamda "mulki vaqf" (maschit, madrasa, xonaqolarga tegishli yerlar) kabi shakllari mavjud bo'lib kelayotgan edi. Garchi mulklar davlat, xususiy va vaqf mulklariga

¹ Buxoro davlat universiteti Buxoro tarixi va arxeologiya kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi

² magistrant, Buxoro davlat universiteti

.



ajratilgan bo‘lsada, biroq soliq tizimi bo‘yicha xirojiy (33%), ushriy (10%) hamda xirojiy vaqf va ushriy vaqf yerlariga bo‘lingan. Davlat yerlarida ijarachi dehqonlar mehnat qilib, ular yetishtirgan mahsulotlari yuzasidan natura, qisman pul ko‘rinishida soliqlar to‘lar edilar. Vaqf yerlaridan kelgan daromad maorif tizimini mablag‘ bilan ta‘minlashning asosiy manbai hisoblanardi. Shuningdek, hamma soliq, to‘lov va jamoat ishlaridan ozod etilgan yerlar - “mulki xurri xolis” yoki “daru bast” (ya’ni, soliqchilar uchun bunday yerlarning eshiklari yopiq) deb yuritilgan.

Ko‘p sonli qishloq aholisining asosiy tirikchilik manbai dehqonchilik xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lgan. Dehqonchilikning sun‘iy sug‘orishga asoslangan tarmog‘i bilan birga tog‘ va tog‘oldi hududlarida lalmikor dehqonchilik bilan ham shug‘ullanilgan. Bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavot yetishtirish yarim mustamlaka yillarida sezilarli darajada qisqargan. Buning sababi dehqonchilikning paxtachilik tarmog‘iga Rossiya imperiyasi mustamlakasi yillarida alohida e’tibor qaratilib, g‘o‘za ekishga yerlarning katta qismi ajratildi. Paxtadan olinadigan foyda barcha mahsulotlar daromadidan ustun bo‘lib, amirlik tobora Rossiyaning xomashyo bazasiga aylanib borayotgan edi. 1893 yildan 1917 yilga qadar Buxoroda paxta ekiladigan yerlar miqdori 300 000 tanobgacha bo‘lib, undan olinadigan daromad 25 mln. oltin so‘mni tashkil etgan[3, 108-son]. Paxtachilik bilan birga chorvachilik, ayniqsa, qorako‘chilik, ipak va jun mahsulotlarini ishlab chiqarish sohalari yildan-yilga nisbatan o‘sib borgan. Buxoro amirligidan Rossiyaga mustamlaka davrining dastlabki yillarida 30 000-40 000 dona qorako‘l teri chiqarilgan bo‘lsa, 1914 yilga kelib bu nisbat 1.800 000 donani tashkil qildi. Paxta va qorako‘l terining 80 foizi Rossiyaga eksport qilinar edi[4, B.9]⁴

Rossiyada 1917-yildagi fevral inqilobi va Oktyabr to‘ntarishidan so‘ng garchand Buxoro amirligining mustaqilligi Muvaqqat hukumat va sovet hokimiyati tomonidan tan olingen bo‘lsa-da, lekin uning hududi, chegaralari sovet Rossiyasi ixtiyorida bo‘lib, Buxoro tashqi dunyodan ajralib qolgan edi. Amirlikdagи 26 ta paxta tozalash, 4 ta yog‘, 10 tasovun zavodlari ishlab chiqargan mahsulotlar, qorako‘l teri va boshqa mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan tovarlar chetga chiqarilmay omborlarda to‘planib qolaverdi. Oqibatda 1919 yilga kelib chetga paxta chiqarish 20 marta, qorako‘l teri sotish 10 marta qisqardi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari narxi pasayib ketdi. 1917 yil 1 pud paxta 11 so‘m baholangan bo‘lsa, 1919 yilga kelib 2 so‘mu 80 tiyinga tushdi. 1 pud jun 6 so‘mdan 2 so‘mga, 1 dona qorako‘l teri 7 so‘mdan 1 so‘m 20 tiyinga tushib ketdi[5, B. 69].

Mamlakatdagи iqtisodiy tanglik siyosiy inqirozni ham chuqurlashtirdi. Rossiyaning markaziy rayonlarida ro‘y bergen keskin siyosiy o‘zgarishlar, demokratiya va erkinlik uchun kurash o‘rtalas an‘analari asosidagi boshqaruvni saqlab kelayotgan Buxoro amirligiga o‘z ta’sirini o‘tkazdi.

1920-yil sentyabr oyi boshlarida Buxoro amirligi tugatilib, uning hududida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil topdi.

BXRda Fayzulla Xo‘jayev boshchiligidan nozirlar kengashi hukumati tuzilib, alohida «Ziroat ishlari kengashi» (qishloq xo‘jalik ishlari nozirligi) tashkil etildi. Mazkur nozirlikni Buxoro jadidchilik harakatining yirik vakillaridan biri Mirzo Abdulrahim Yusufzoda 1920-yil kuzidan 1921 yil yanvariga qadar boshqardi. Yusufzoda Buxoro Respublikasining Afg‘onistondagi favqulodda va muxtor elchisi qilib tayinlangandan so‘ng, avval Porso Xo‘ja, 1922-1923-yillarda esa Safo Jo‘raboyev ziroat noziri vazifasida ishladi[6, 20-son]. Halim Ashurov ziroat nozirining muovini vazifasida ishlab keldi.

Buxoro Respublikasining davriy matbuot organlari bo‘lgan «Buxoro axbori» va «Ozod Buxoro» gazetalari bilan tanishar ekanmiz, ularda qishloq xo‘jaligining ahvoli, uni rivojlantirish yo‘lidagi chora-tadbirlar bilan bog‘liq o‘nlab maqola va xabarlar e’lon qilinganligiga guvoh bo‘lamiz.

BXRning suv bilan ta‘minlanish muammosi ko‘p jihatdan Turkiston ASSR bilan munosabatlariga bog‘liq edi. Chorizm mustamlakasi davrida Turkiston general-gubernatorligi bilan Buxoro amirligi o‘rtasida Zarafshon daryosi suvining atigi uchdan bir qismigina Buxoroga beriladigan bo‘lgandi. Agar Zarafshon vohasi tarixan yaxlitligini saqlab qolganida edi, yer-suv munosabatlarida bunday jiddiy iqtisodiy-ijtimoiy muammolar yuz bermagan bo‘lardi.⁵

⁴ Qosimov F., Rashidov U. Buxoro amirligining tugatilishi /Buxoro tarixi masalalari. -Buxoro. 1996. -B. 69-70.

⁵ Buxoro axbori. 42-son. 1921 yil 3 iyul (Buxoro xabarları: “Suv masalasi”).



Turkiston Respublikasining «Samarqand suv idorasi» chorizm mustamlakasi davridagi shartnomaga asosida ish ko'rardi. BXSR hukumati esa yangi loyiha asosida suv taqsimotini hal qilish uchun harakat qilgan. Bu sohada bir necha bor ikki hukumat a'zolaridan iborat «3 kishilik», «5 kishilik» komissiya hay'atlari tuzilgan[7, 42-son]. Bizningcha, bu masala ancha tortishuvlarga sabab bo'lgan. Xabarlardan birida: «1921 yil shartnomasida Samarqandga qarashli 72,885 desyatina yer Zarafshondan sug'orilmaydur deb ko'rsatilgan ekan. Keyin tekshirish natijasida anglashilgankim, ul yerlar Zarafshon suvi bilan sug'orilayotgan ekan. Shuni ko'zda tutib, Xalq Nozirlar Sho'rosi Buxoro hisobida turgan suvning hammasini yuborilishini so'ramoqqa qaror berdi[8, 42-son]»-deyiladi. BXSR suv ishlari idorasi mudiri, muhandis Isakovich Buxoroda sug'orish ishlarini yo'lga qo'yish uchun Samarqand, Kattaqo'rg'on shaharlarda bir necha bor bo'lib, bu sohadagi mutasaddi kishilar bilan muzokaralar olib borgan. Ko'p urinishlardan so'ng, Kattaqo'rg'on mahalliy hukumati nazoratida bo'lgan Narpaydaryo ustidan nazarat Buxoroga o'tkaziladi. Bu daryoning suvi respublika yerlarini sug'orish uchun xizmat qila boshlaydi. Lekin bu bilan masala hal bo'lmaydi. BXSRda «suv muammosi» kun tartibidagi muhim masala bo'lib qolaveradi. Mamlakatda qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari: dehqonchilik, (paxtachilik, donli ekinlar va polizchilik), chorvachilik, qorako'lchilik, ipakchilik bo'lgan.

Respublika yillarda qishloq xo'jaligining rivojlanishiga suv tanqisligidan tashqari boshqa ko'pgina omillar ham salbiy ta'sir ko'rsatgan edi. Amirlik davrida birinchi jahon urushi tufayli qishloq xo'jaligi rivojiga putur yetib, dehqonchilikda hosildorlik juda pasayib ketgandi. Buxoro Respublikasi hukumati o'rnatilgandan keyin dastlabki 2-3 yil dohiliy (ichki) urushlar bilan o'tdi.⁶ Istiqlolchilik harakati yillarda irrigatsiya inshootlari ishdan chiqdi yoki buzib tashlandi, dehqonlarning asbob-uskunalarini eskirib qolgandi, ariq va kanallarni loy va xashak bosib, yaroqsiz holda kelgan, hosildor yerlar tashlandiqqa aylangandi. Qizil armiyani boqish uchun dehqonlardan oziq-ovqat mahsulotlarini zo'rlik bilan tortib olinishi ularni yerdan uzoqlashtirdi. Chorvachilikda esa mollar tuyog'i kamayib ketdi.

Qishloq xo'jaligini ilg'or, zamonaviy texnika bilan qurollantirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. 1923 yilda Chexoslovakiyadan Buxoro Respublikasiga 20 dona traktor va yer tekislaydigan texnika vositalarini xorijlik mutaxassislar bilan birga olib kelish mo'ljallanganligi bilan bog'liq ma'lumot ham bor[9, 132-son].

1923 yilda nisbatan tinchlikka erishgan Buxoro Xalq Sovet Respublikasining bu sohadagi istiqbolli rejalar qog'ozda qolib ketdi. Milliy davlat chegaralanishi tufayli Buxoro Respublikasi hukumati va davlati 1924 yilda tugatildi.

XULOSA

1925 yil 13-17 fevralda Buxoroda maxsus qurilgan Xalq uyida Butuno'zbek (O'zbekiston SSR) Sovetlarining 1 – ta'sis qurultoyi bo'lib o'tdi. 17 fevralda O'zbekiston SSRning ixtiyoriy ravishda SSSR tarkibiga kirganligi deklaratsiya orqali e'lon qilindi. “Shu kundan e'tiboran o'zbek xalqi hududida Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryo, Zarafshon (Buxoro), Surxondaryo va Xorazm viloyatlarini o'z ichiga olgan O'zbekiston SSR ta'sis etiladi, unga Tojikiston ASSR ham kiradi”, -deb qayd etiladi deklaratsiyada[10, B. 309].

Shunday qilib vohadagi yer-suv munosabatlari yangi tashkil etilgan O'zbekiston hukumatining xo'jalik va sovet idoralariga to'liq buysindirildi va ma'muriy-buyruqbozlik asosida boshqarildi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Saidov B. O'rta Osiyoda yer-suv munosabatlari. –T.: “Universitet”, 2001. –B.58.
2. Alimov I. Agrarnyye preobrazovaniye v Narodnykh Sovetskix Respublikax Xorezma i Buxary (1920-1924gg). - T.: “Uzbekistan”, 1970. -S. 7-8.
3. Buxoro axbori. 108-son. 1922 yil 5 noyabr.
4. Alimov I. Agrarnyye preobrazovaniye v Narodnykh Sovetskix Respublikax Xorezma i Buxary (1920-1924gg). -T.: “Uzbekistan”, 1970. -S. 9.

⁶ Buxoro axbori. 108-son. 1922 yil 5 noyabr.



5. Qosimov F., Rashidov U. Buxoro amirligining tugatilishi /Buxoro tarixi masalalari. -Buxoro. 1996. -B. 69-70.
6. Buxoro axbori. 20-son. 1921 yil 18 yanvar; 100-son. 1922 yil 21 sentyabr.
7. Buxoro axbori. 42-son. 1921 yil 3 iyul; 56-son. 26 noyabr; 82-son. 1922 yil 4 may; 89-son. 8 iyul.
8. Buxoro axbori. 42-son. 1921 yil 3 iyul (Buxoro xabarlari: “Suv masalasi”).
9. Buxoro axbori. 132-son. 1923 yil 8 fevral.
10. O‘zbekiston tarixi (1917-1991 yillar) Matn K.1. O‘zbekiston 1917-1939 yillarda. –Toshkent “O‘zbekiston” NMIU, 2019. –B. 309.

